

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.....	335
M.A.Kuchkarova	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
K.Sh.Nishonova	
Boshlang'ich ta'limga integrativ ta'limga va uning turlari.....	347
A.R.Dilbarjonov	
Zamonaviy ta'limga jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasи	354
M.M.Abdumannopov	
Ta'limga raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'limga olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
T.Y.Bakirov, O.S.Axmадjonova	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
N.A.Qodirova	
Texnika olyi o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida).....	366
Z.N.Ortiqova	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva	
Ta'limga o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'rni	377
I.Kirgizov	
"Ey sabo" – komil insonga aksilogik yondashuv	381
A.T.Karimov	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
A.M.Nurmuxammadjonov	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati	390
M.M.Najmetdinova	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
M.Kurbanova	
Dutor cholg'usi ijrochiligidagi musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari	400
X.M.Shermatova	
Maktabgacha ta'limga tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
T.N.Shokirov	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
B.M.Qurbanova	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
L.Sh.Shukurova	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili.....	415
A.A.A'zamjonov	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'rni	419
A.A.Abdisattorov	
Musiqaga o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
I.D.Rustamov	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'rni (Doira cholg'usi misolida).....	428
A.A.Ergashev	
Vokal-xor ta'limga finale-2003 dasturining qo'llanishi	432
A.A.Mamurov	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



UO'K: 75.041.76.03./09

**YANGI O'ZBEKİSTONDA MA'RİFATLI JAMIYAT QURISHDA TASVIRİY VA AMALİY
SAN'ATNING O'RNI**

**РОЛЬ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО И ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В ПОСТРОЕНИИ
ПРОСВЕЩЕННОГО ОБЩЕСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**THE ROLE OF FINE AND APPLIED ARTS IN BUILDING AN ENLIGHTENED SOCIETY
IN THE NEW UZBEKISTAN**

A'zamjonov Axadjon A'zamjonovich 

Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at kafedirası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlar tarbiysi siyosat darajasiga ko'tarilganligi, yoshlarning mafkuraviy va ma'nnaviy dunyoqarashini kengaytirish bosqichlari yoritilgan. Xozirgi globallashuv davrida o'quvchi talabalarning ongini yod g'oyalar ta'siriga tushub qolmasliklari uchun tasviriy va amaliy san'at qay darajada muhim ekanligi taxlil qilingan.

Аннотация

В данной статье освещаются этапы повышения уровня воспитания молодежи в обновляемом Узбекистане до уровня политики, расширения идеологического и духовного мировоззрения молодежи. Было проанализировано, насколько важно изобразительное и прикладное искусство в нынешнюю эпоху глобализации, чтобы учащиеся не подвергали свои умы воздействию идей, которые они запоминают.

Abstract

This article highlights the stages of raising the level of education of youth in the renovated Uzbekistan to the level of politics, expanding the ideological and spiritual worldview of youth. It was analyzed how important visual and applied arts are in the current era of globalization, so that students do not expose their minds to the ideas that they remember.

Kalit so'zlar: Globallashuv, g'oya, mafkura, komponent, mutafakkirlar, tasviriy san'at, amaliy san'at.

Ключевые слова: глобализация, идея, идеология, компонент, мыслители, изобразительное искусство, прикладное искусство.

Key words: globalization, idea, ideology, component, thinkers, fine art, applied art.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz yoshlar tarbiysi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, buning negizida kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni, inson qalbi va ongini egallash uchun qaratilgan turli xil yot g'oyalar mafkuralar va tajovuzlardan asrab qolish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Bugungi yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida barcha sohalar kabi ma'naviyat va ma'rifikat, tarbiya sohasi ham innovatsiyalarga muhtoj. Yevropada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Rossiyada yoshlar tarbiyasining ilmiy strategiyalari bilan shug'ullanadigan yuzlab tashkilot, fond, assotsiatsiyalar bor. Ularning tajribasini o'rganish, zamonaviy texnologiyalarini olib kelib, yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash maqsadlarida foydalanish oliv ta'lim modernizatsiyasining muhim talablaridan biri bo'lib turibdi. Zero, olib borilayotgan barcha islohotlar, Taraqqiyot strategiyamizning samaradorligi inson omiliga, uning ma'naviyatiga bog'liq. Shu sababli milliy g'oya, g'oyaviy tarbiya va ma'naviyat-ma'rifikat masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. G'oyaviy tarbiyaga befarq va loqayd bo'lgan millat va mamlakatlar yer yuzidan nomi va o'zi yo'qolib ketishiga sabab bo'lsa, yoshlarni zamonaviy milliy g'oya ruhida tarbiyalagan millat bardavom yashaydi. Shu sababli xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy, va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatlarni shakllantirish, yon- atrofda yoz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch osoyishta hayotimizga xavf tug'dirish mumkin bo'lgan tajavuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi muhim masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning texnologik komponentlari – aholi, yoshlarda zarur ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar va mustahkam mafkuraviy immunitetni, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi usul va uslublarni anglatadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar texnologiyasining mazmunini oilada, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida, harbiy qismlarda, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari, barcha davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan quyidagi yo'nalishlar tashkil etadi:

- mamlakatimiz yoshlarini san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini, muxlislik madaniyatini har tomonlama rag'batlantirib borish, xalqimiz turli qatlamlari orasida kino, teatr san'atining ahamiyatini yuksaltirish, ommaviyligini ta'minlash borasidagi tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish;

- oila, mahalla, maktab, akademik litsey, oliy o'quv yurtlari va ta'llimdan tashqari muassasalarda komil inson tarbiyasi bilan bog'liq tuyg'u va tushunchalarni yosh avlod qalbi hamda ongiga ta'sirchan usullar orqali singdirish, ajodolarimizning bu boradagi merosini bugungi taraqqiyot talablari bilan uzviy holda rivojlantirish;

- xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati, milliy va diniy qadriyatlariga qarshi qaratilgan mafkuraviy xurujlarga qarshi samarali va tizimli kurash olib borish bo'yicha ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish;

- ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, korxonalarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar malakasini oshirish tizimini yaratish, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha kadrlar zahirasini shakllantirish, zahiraga qo'yilgan kadrlar uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish maqsadida ilg'or tajribalar, innovatsion g'oyalarni hayotga joriy etishni rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

- bolalar, o'smirlar, yoshlar va kattalarga mo'ljallangan, milliy ma'naviyat targ'ibotiga bag'ishlangan hamda ma'rifiy yo'nalishdagi dolzarb mavzulardagi hujjatli va badiiy filmlar, shuningdek, o'quv filmlari yaratish ishlarini tashkil qilish;

- yoshlar bilan ishlashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirish, bu borada zamonusiy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida samarali mexanizmini yaratish;

- aholi va yoshlarning ma'naviy-axloqiy, siyosiy-ijtimoiy, diniy masalalarga oid ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy muhit va jamoatchilik kayfiyatini o'rganish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish shular jumlasidandir.

muminsoniy qadriyatlar butun insoniyat rivoji davomida insonlar tomonidan yaratilgan va bebafo mulk sanalgan moddiy va ma'naviy boyliklar, madaniy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik va boshqa qarashlar yig'indisi sanaladi.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlar zaminida shakilanadi, ya'ni biror bir millatga mansub milliy qadriyatlar rivojlanib, yillar davomida takomillaslib boshqa millat va elatlar tomonidan e'tirof etilib tan olinadi. Shu tariqa milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tariladi. Masalan, o'rta asrlardagi Sharq sivilizatsiyasi o'zbek xalqi uchun milliy qadriyat, jahon xalqlari uchun umuminsoniy qadriyat sanaladi.

Tasviriy san'atni o'qitilishida talabalarni umuminsoniy qadriyat-lar ruhida tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- tasviriy san'atni paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini o'rganish;
- Sharq mutaffakirlari va allomalarning xalq pedagogikasiga qo'shgan hissalarini yoritish;
- buyuk rassomlarimizning umumbashariy mulkka aylangan noyob asarlarini o'rganish;
- tasviriy san'at fanining rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk olimlar hayotining ibratli tomonlarini ko'rsatish.

Talabalarning galbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish uchun o'qituvchi milliy mafkuraning asosiya g'oyalarini chuqur anglashi, olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda mazkur g'oyalarga asoslanishi va shu yuksak maqsadlarni amalga oshirishga safarbar etishi kerak.

Tasviriy san'at va uning mohiyati, tur va janrlari Tasviriy san'at - eng qadimiya va keng tarqalgan san'at turlaridan biridir. Aslida san'atning turlari juda ko'p. Ular badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatr, kino, xoreografiya, me'morchilik, amaliy bezak kabi boshqa san'at turlari ham

PEDAGOGIKA

mavjuddir. Odatda, haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda fazoviy kengiikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. XIX asrgacha me'morchilik, haykaltaroshlik va rangtasvir tasviriy san'atning turlari bo'Mib hisoblangan. Asrning oxirlarida esa grafika tasviriy san'atning muhim va hozirjavob turlaridan biriga aylandi. So'nggi 20 yil ichida san'atning dizayn kabi turi ham o'z o'mini topdi. Tasviriy san'atning hamma turi bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin har birining o'ziga xos tasvirlash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatalishi, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga vajanrlarga bo'linadi. Grafika. Grafika yunoncha "grapho" so'zidan olingan bo'lib, "yozaman", "chizaman" degan ma'noni anglatadi. Grafikaga oddiy qora qalam, tushda chizilgan surat, mavzuli kompozitsiyalar kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasmlar, illyustratsiya, plakat, hajviy, sharj, efiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asosan chiziq, shakl va oq qora ranglar orqali tasvirlanadi. San'atning ayrim turlarida bo'yoqlardan ham foydalaniladi, lekin asar mazmunini ochib berishda asosiy vazifani o'tamaydi, faqat kishilami jalg qilishi yoki chaqiriq vazifasini bajarishi mumkin. Shuning uchun ham bu sohada ikki uch xildan ortiq bo'yoq deyarli ishlatilmaydi. Tasvir mazmuni, xarakteri va boshqa barcha xususiyatlari bo'yoqlar orqali ifodalab berilsa, rangtasvir san'ati deb ataladi. Tasviriy san'atning bu turida ijodkor o'z ichki kechinmalarini ranglar orqali tasvirlaydi, fazoning cheksizligi, undagi narsalaming rang- barangligi, moddiyligini mohirona ko'rsatadi. Masalan, qizil va qora bo'yoqlarda fojiaviylik aks ettirilsa, och moviy va yashil ranglarda tinch va osoyishta holatlar tasvirlanishi mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarda, ayniqsa, so'nggi yilda tasviriy va amaliy san'atdan yoshlarga zamonaviy talablar asosida ta'lim berish sifatini oshirish, jumladan, tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablar asosida tashkil etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashning ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan milliy tizimi yaratildi. Shular bilan bir qatorda, tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga oid yondashuvlarni jadallashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjalari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kun talabasi, bo'lajak mutaxassislarni g'oyaviy tarbiyalash O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri talablari asosida, ilmiy pedagogik asosda modernizatsiyalashuvi talabalarni mustaqil kasbiy ma'naviy hayotga tayyorlash doirasida amalga oshirishni talab qiladi. Ya'ni, ilgari talabalarga milliy g'oya, buzg'unchi va bunyodkor g'oyalar to'g'risida bilim berish bilan cheklanib kelingan bo'lsa, modernizatsiyalashgan g'oyaviy tarbiya g'oyaviy hushyorlikni, kompetensiyalarni yoshlarning kundalik hayotdagi uquvlariga, xulq-atvor me'yorlariga aylantiradi. Zero hozirgi bosqichda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari rivojlanish talabalardan ma'naviy-axloqiy fazilatlar mazmunini bilishnigina emas, balki o'zining kundalik amaliy faoliyatida qo'llash uquviga ega bo'lishni talab qilmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YAXTI

1. R.R.Jabborov. Amaliy bezak san'ati. Toshkent: Zuhra Baraka biznes. 2023y. 111 bet.
2. X.X.Muratov, R.R.Jabborov. Amaliy va badiiy bezak san'ati. Toshkent: Innovatsion- Ziyo. 2021. 161 bet.
3. S.B.Mahkamova. Tasviriy san'at texnologiyasi. Toshkent: Innovatsion-Ziyo, 2023. 108 bet.
4. <https://yandex.uz/>
5. <https://ya.ru/>
6. <https://www.google.com/>